



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti




No9(1)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 44 sahifa,
2-sentyabr, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Woosyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (PhD)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Woosyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oğlu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

O'smirlarda hissiy bezovtalikning psixologik determinantlari sifatida o'z-o'zini baholash va o'ziga munosabat xususiyatlari.....	10
Ibraymova Altinay Esemuratovna	
Bo'lajak pedagoglar shaxsiyatida ksenofobiya xavfi: kasbiy deformatsiya omillari va uning pedagogik faoliyatga ta'siri	16
Abdiraximova Dildora Begimkulovna	
Biologiya ta'limida sun'iy intellektdan foydalanish: didaktik imkoniyatlar, muammolar va metodik yechimlar	20
Raxmatov Uchkun Ergashevich	
Talabalarda mediasavodxonlik va tanqidiy fikrlash o'rtasidagi psixologik bog'liqlik.....	28
Adizova Muxabbat Muxitdinovna	
Oliy ta'lim rahbar-kadrlarida stressogen vaziyatlarni boshqarishning pedagogik-psixologik o'ziga xos jihatlari	32
Sultonov Mansur G'aniyevich	
Boshlang'ich ta'limda individual yondashuv orqali o'quvchilarning ta'lim natijalarini yaxshilash	37
Latipova Ma'rifat Salohiddin qizi, Bo'tayeva Saodat Xudoyor qizi	
Bo'lajak o'qituvchilarning raqamli resurs bazasini yaratish kompetensiyasi: tuzilma va mezonlar.....	41
Qo'qonboyeva Durdona Faxriddin qizi	



BOSHLANG'ICH TA'LIMDA INDIVIDUAL YONDASHUV ORQALI O'QUVCHILARNING TA'LIM NATIJALARINI YAXSHILASH

Latipova Ma'rifat Salohiddin qizi

Toshkent Ijtimoiy Innovatsiya Universiteti
Pedagogika va psixologiya kafedrasida o'qituvchisi

Bo'tayeva Saodat Xudoyor qizi

Toshkent Ijtimoiy Innovatsiya Universiteti
Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 4-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'zlashtirish darajasini oshirishda individual yondashuvni qo'llash samaradorligi yoritilgan. Tadqiqot davomida o'quvchilarning shaxsiy qobiliyatlari, qabul qilish tezligi va qiziqishlarini hisobga olgan holda differensiallashgan topshiriqlar va pedagogik strategiyalar tahlil qilindi. Natijalar shuni ko'rsatdiki, individual ta'lim trayektoriyasini joriy etish o'quvchilarning mantiqiy fikrlash va fanlarni o'zlashtirish ko'rsatkichlarini sezilarli darajada oshiradi.

Kalit so'zlar: boshlang'ich ta'lim, individual yondashuv, differensial ta'lim, ta'lim natijalari, o'quv motivatsiyasi, pedagogik texnologiyalar.

Abstract: This article explores the effectiveness of applying an individualized approach to improve learning outcomes among primary school students. The study analyzes differentiated tasks and pedagogical strategies tailored to students' personal abilities, learning paces, and interests. The results demonstrate that implementing individualized learning trajectories significantly enhances students' logical thinking and academic performance.

Key words: primary education, individualized approach, differentiated learning, learning outcomes, educational motivation, pedagogical technologies.

Аннотация: В данной статье рассматривается эффективность применения индивидуального подхода для повышения успеваемости учащихся начальных классов. В ходе исследования проанализированы дифференцированные задания и педагогические стратегии с учетом личных способностей, темпа усвоения и интересов учащихся. Результаты показывают, что внедрение индивидуальных образовательных траекторий значительно повышает показатели логического мышления и качества знаний учащихся.

Ключевые слова: начальное образование, индивидуальный подход, дифференцированное обучение, результаты обучения, учебная мотивация, педагогические технологии.

KIRISH

Boshlang'ich ta'lim bosqichi inson shaxsiyatining shakllanishida, uning intellektual va ijtimoiy poydevori qurilishida hal qiluvchi o'rin tutadi. Aynan shu davrda o'quvchida mustaqil fikrlash, axborot bilan ishlash, o'rganish ko'nikmalari hamda atrof-muhitga bo'lgan dunyoqarash botiq va tizimli ravishda shakllana boshlaydi. Biroq har bir bola maktab ostonasiga qadam qo'yar ekan, o'zining individual-psixologik xususiyatlari, idrok etish turi (vizual, auditiv, kinestetik), xotira hajmi va axborotni qayta ishlash tezligi bilan boshqalardan ajralib turadi. Bir o'quvchi yangi mavzuni birinchi tushuntirishdanoq mantiqan anglab olsa, boshqa bir o'quvchiga tushunchalarni vizual ko'rgazmalilik yoki amaliy mashqlar orqali bir necha bor takrorlash talab etiladi.

Afsuski, uzoq yillar davomida qo'llanilib kelingan an'anaviy "barcha uchun bir xil" - ya'ni bir xil qolip va bir xil sur'atga asoslangan o'qitish usuli o'quvchilarning bu individual tafovutlarini yetarlicha hisobga olmaydi. Barcha o'quvchilar uchun bir xil murakkablikdagi topshiriq va bir xil vaqt me'yoringing belgilanishi ta'lim jarayonida muvozanatsizlikni keltirib chiqaradi. Natijada, nisbatan sekin o'zlashtiruvchi o'quvchilar mavzuni o'z vaqtida tushunib yetmasdan orqada qolib ketadi va ularda o'z kuchiga bo'lgan ishonchsizlik paydo bo'ladi. Aksincha, iqtidorli va tez fikrlaydigan o'quvchilar esa o'z bilimlari darajasidan past bo'lgan bir xil tipdagi topshiriqlarni bajarish jarayonida darsda zerikib, ta'limga bo'lgan qiziqish va motivatsiyasini yo'qota boshlaydilar.

Aynan mana shu muammolarni bartaraf etish va ta'lim sifatini oshirish maqsadida zamonaviy boshlang'ich ta'lim jarayonida individual yondashuvni qo'llash dolzarb pedagogik masalalardan biri sifatida kun tartibiga chiqmoqda. Individual yondashuv shunchaki har bir o'quvchi bilan alohida shug'ullanish emas, balki har bir bolaning o'ziga xos kuchli va kuchsiz tomonlarini puxta diagnostika qilish hamda uning psixofiziologik imkoniyatlariga mos keladigan o'quv muhitini yaratishdir. Bu yondashuv o'quvchining ichki salohiyatini maksimum darajada ro'yobga chiqarishga, uning muvaffaqiyat hissini tuyishiga va mustaqil ta'lim olish ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan amaliy pedagogik jarayonni tashkil etishni nazarda tutadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Jahon ta'lim tizimida boshlang'ich ta'limning o'rni, bolalar psixologiyasi va o'qitishning innovatsion metodikasi ko'plab xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan tadqiq etilgan.

L. Vygotskiy va J. Piage kabi olimlarning tadqiqotlarida kichik maktab yoshidagi bolalarning kognitiv rivojlanihi hamda shaxs sifatida shakllanishida ta'lim muhitining o'rni beqiyos ekanligi ta'kidlangan.

Zamonaviy pedagogikada an'anaviy ta'lim usullari bilan bir qatorda STEAM (Science, Technology, Engineering, Arts, Mathematics) ta'limidan foydalanish ham tobora kengayib, global ta'lim tendensiyalaridan biriga aylanmoqda.

O'zbekistonlik pedagog olimlar (R. Mavlonova, N. Bikbayeva va boshqalar) ham o'z ilmiy ishlarida boshlang'ich sinflarda ta'lim va tarbiya jarayonini integratsiyalashtirish holda olib borish zaruriyatini asoslab berishgan.

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, zamonaviy boshlang'ich sinf o'qituvchisi nafaqat o'qish va yozishni o'rgatuvchi mutaxassis, balki bolaning psixologiyasini tushunuvchi, raqamli texnologiyalar va inkluziv ta'lim asoslarini mukammal biluvchi universal kadr bo'lishi talab etiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqot boshlang'ich sinf o'quvchilarining ta'lim natijalarini individual yondashuv vositasida oshirish imkoniyatlarini ilmiy, metodik va amaliy jihatdan har tomonlama asoslashga qaratilgan. Tadqiqot jarayonida ilgari surilgan ilmiy gipotezani tekshirish va belgilangan vazifalarning aniq yechimini ta'minlash maqsadida nazariy, empirik va statistik pedagogik tahlil usullarining yaxlit majmuasidan foydalanildi.

Tadqiqotning metodologik strukturasi mantiqiy ravishda ketma-ket keladigan va bir-birini to'ldiradigan uchta asosiy bosqichda amalga oshirildi:

- 1. Nazariy-metodologik tahlil va ilmiy manbalarni umumlashtirish:** Dastlabki bosqichda boshlang'ich ta'lim pedagogikasi, yosh psixologiyasi hamda didaktika sohasidagi mahalliy va xorijiy olimlarning ilmiy-tadqiqot ishlari atroflicha o'rganib chiqildi. Individual va differensial ta'lim konsepsiyalari, shuningdek, shaxsiga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalarining nazariy-uslubiy bazasi tahlil qilindi. Manbalarni qiyosiy o'rganish orqali boshlang'ich sinf o'quvchilarining yosh va psixofiziologik xususiyatlariga mos keladigan differensiallangan ta'lim modelining parametrlari belgilandi hamda individual yondashuvning pedagogik samaradorlik mezonlari va baholash ko'rsatkichlari shakllantirildi.
- 2. Diagnostika, psixopedagogik kuzatuv va guruhlash:** Amaliy tajriba-sinov ishlarini boshlashdan oldin o'quvchilarning bilish faoliyati, shaxsiy va intellektual imkoniyatlarini aniqlashga qaratilgan ko'p omilli diagnostika bosqichi o'tkazildi. Maxsus pedagogik kuzatuv kartalari, psixologik testlar hamda didaktik so'rovnomalar yordamida o'quvchilarning axborotni idrok etish usuli (vizual, auditiv, kinestetik), diqqatning barqarorligi va bo'linishi, xotira hajmi hamda topshiriqlarni bajarish tezligi batafsil o'rganildi. Ushbu diagnostika ma'lumotlari har bir o'quvchining boshlang'ich bilim va amaliy ko'nikma darajasini aniq belgilash, ularning o'quv qiyinchiliklarini aniqlash hamda kelgusi ta'lim trayektoriyasini to'g'ri rejalashtirish uchun mustahkam zamin yaratdi.
- 3. Pedagogik tajriba-sinov va differensiallangan ta'limni tatbiq etish:** Diagnostika natijalariga tayanib, dars jarayoniga uch darajali differensiallangan topshiriqlar va individual ta'lim trayektoriyasi tizimi izchillik bilan joriy etildi. O'quv materiallari, mashqlar va amaliy topshiriqlar murakkablik darajasi hamda o'quvchining idrok etish potentsialiga ko'ra quyidagi 3 ta bosqichga ajratildi:
 - A daraja (boshlang'ich/tayanch): O'quvchilarda tayanch bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirishga, namuna hamda yo'riqnoma bo'yicha topshiriqlarni bajarishga mo'ljallangan;
 - B daraja (o'rta/amaliy): Mantiqiy fikrlashni, olgan bilim va ko'nikmalarini biroz o'zgargan standart va amaliy vaziyatlarda mustaqil qo'llashni talab etuvchi topshiriqlar;



- C daraja (yuqori/ijodiy): Yuqori darajadagi mantiqiy va analitik fikrlashni, muammoli topshiriqlarni yechishni hamda ijodiy yondashuv orqali mustaqil xulosalar chiqarishni ko'zda tutuvchi murakkablashtirilgan topshiriqlar.

Tajriba-sinov jarayonida o'quvchilarning darsdagi faollik dinamikasi, ta'limga bo'lgan motivatsiyasining o'sishi hamda bilim shakllanishi ko'rsatkichlari muntazam ravishda baholab va monitoring qilib borildi. Olingan yakuniy natijalar pedagogik tahlil va matematik-statistik metodlar yordamida qayta ishlandi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot davomida olib borilgan pedagogik tajriba-sinov ishlari va kuzatuvlar boshlang'ich sinf o'quv jarayonida individual yondashuvni tatbiq etish o'quvchilarning nafaqat akademik o'zlashtirish ko'rsatkichlariga, balki ularning ruhiy-emotsional holati hamda darsdagi faolligiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatishini ko'rsatdi. An'anaviy va individual yondashuv asosida tashkil etilgan dars jarayonlarining qiyosiy tahlili shuni ko'rsatdiki, o'quv materiallarini differensiallash o'quvchilarning bilish faoliyatini sezilarli darajada jadallashtiradi (1-jadval).

1-jadval: An'anaviy va individual ta'lim yondashuvlarining qiyosiy tahlili

Baholash mezonlari	An'anaviy yondashuvda	Individual yondashuvda
O'quvchilar faolligi	O'rta (asosiy e'tibor umumiy o'quv jarayoniga qaratiladi)	Yuqori (har bir o'quvchi o'z imkoniyatiga mos topshiriq bilan band)
O'quv motivatsiyasi	O'quv motivatsiyasi umumiy pedagogik yondashuvlar asosida shakllantiriladi	O'ziga bo'lgan ishonch va bilim olishga nisbatan yuqori qiziqish shakllanadi
O'zlashtirish samaradorligi	Bilimlarni o'zlashtirish va namuna asosida mustahkamlashga e'tibor qaratiladi	Mantiqiy fikrlash, tushunib o'zlashtirish va amalda qo'llashga e'tibor qaratiladi
Darsdagi psixologik muhit	Umumiy pedagogik talablar asosida tashkil etiladi	Qulay va hamkorlikka asoslangan muhit yaratiladi
Mustaqil ishlash ko'nikmasi	O'qituvchi ko'rsatmalari asosida bosqichma-bosqich rivojlantiriladi	O'z-o'zini nazorat qilish va baholash orqali faol rivojlantiriladi

Pedagogik monitoring natijalariga ko'ra, differensiallangan kartochkalar, individual rivojlanish trayektoriyalari va o'z-o'zini baholash texnologiyalarining bosqichma-bosqich qo'llanilishi o'quvchilarning fanlar bo'yicha o'zlashtirish sifat ko'rsatkichini o'rtacha 15–20 % ga oshirish imkonini berdi. Tajriba-sinovidan oldingi va keyingi diagnostika ma'lumotlari tahlili shuni ko'rsatdiki, bilimlarni tushunib o'zlashtirish darajasi sekin o'zlashtiruvchi guruhda ham, yuqori salohiyatli guruhda ham birdek o'sgan.

Natijalarning atroflicha muhokamasi shuni ko'rsatdiki, individual yondashuv har bir o'quvchi toifasi uchun o'ziga xos pedagogik samara berdi:

1. **Sekin o'zlashtiruvchi o'quvchilar:** Tayanch topshiriqlar (A daraja) va ko'rgazmali metodlarning qo'llanilishi natijasida ular topshiriqlarni bajarishga nisbatan ishonch ortdi. Topshiriqlarni mustaqil bajara olish hissi ular o'z kuchiga bo'lgan ishonchni shakllantirdi va dars jarayonidagi faollikning oshishiga xizmat qildi.
2. **O'rta o'zlashtiruvchi o'quvchilar:** Bosqichma-bosqich murakkablashib boruvchi topshiriqlar (B daraja) vositasida ularning mantiqiy fikrlash va amaliy topshiriqlarni mustaqil yechish ko'nikmalari sezilarli darajada rivojlandi.
3. **Iqtidorli va yuqori salohiyatli o'quvchilar:** Ular uchun maxsus ishlab chiqilgan C darajali muammoli va ijodiy topshiriqlar, mantiqiy masalalar dars jarayonining mazmungan boyishiga xizmat qildi. Bu esa ularning ilmiy-ijodiy izlanuvchanligini oshirib, bilimlarini chuqurlashtirish hamda kengaytirishga xizmat qildi.

Ta'lim jarayoniga individual yondashuvning joriy etilishi o'quvchilar o'rtasidagi bilim darajalarini muvofiqlashtirish bilan birga, har bir bolaning shaxsiy ta'limiy dinamikasini ijobiy tomonga yo'naltirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot va amaliy tajriba-sinov ishlari natijalaridan kelib chiqqan holda, boshlang'ich ta'lim jarayonida individual yondashuvni yanada samarali tashkil etish hamda o'quvchilarning o'zlashtirish ko'rsatkichlarini izchil oshirish bo'yicha quyidagi pedagogik va uslubiy takliflar ilgari suriladi:

1. **Tizimli psixopedagogik diagnostika mexanizmini yo'lga qo'yish:** O'quv yili boshida va har bir chorak avvalida boshlang'ich sinf o'quvchilarining intellektual salohiyati, idrok etish turi (vizual, auditiv, kinestetik) hamda axborotni qayta ishlash tezligini aniqlovchi metodik diagnostikalarni o'tkazish lozim. Bu o'qituvchiga har bir bolaning o'ziga xos xususiyatlariga mos keladigan shaxsiy ta'lim trayektoriyasini to'g'ri loyihalashtirish imkonini beradi.



2. **Differensiallangan va ko'p darajali topshiriqlar bazasini boyitish:** Boshlang'ich sinf darsliklari, amaliy mashq daftarlari va raqamli ta'lim resurslarida darajalashtirilgan (A - tayanch, B - amaliy/mantiqiy, C - ijodiy/muammoli) topshiriqlar salmog'ini sezilarli darajada oshirish zarur. Har bir mavzu bo'yicha o'quvchining idrok etish darajasiga mos didaktik materiallar hamda moslashuvchan kartochkalar bazasini yaratish ta'lim jarayonining unumdorligini ta'minlaydi.
3. **Insonparvarlikka va individual o'sishga asoslangan moslashuvchan baholash tizimini joriy etish:** O'quvchilarning individual rivojlanish dinamikasini hisobga olgan holda, har bir o'quvchining avvalgi va joriy natijalarini qiyoslashga asoslangan baholash mexanizmini keng tatbiq etish maqsadga muvofiq. Bu o'quvchilarning ta'lim jarayonidagi ishonchini mustahkamlash, ularda ichki motivatsiya va o'z kuchiga bo'lgan ishonchni shakllantirishga xizmat qiladi.
4. **O'qituvchilarning metodik va konfliktologik kompetentligini oshirish:** Boshlang'ich sinf o'qituvchilariga dars jarayonida differensiallangan ta'lim texnologiyalarini qo'llash, individual rivojlanish rejalarini tuzish va har bir o'quvchi bilan samarali muloqot o'rnatish bo'yicha amaliy treninglar, seminar-dastgohlar hamda malaka oshirish kurslarini muntazam tashkil etish maqsadga muvofiqdir.
5. **Maktab va oila o'rtasidagi individual hamkorlikni kuchaytirish:** O'quvchining individual rivojlanish dinamikasi bo'yicha ota-onalar bilan muntazam qayta aloqani yo'lga qo'yish, uyga beriladigan topshiriqlarni ham bolaning imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda differensiallash va oilada qo'llab-quvvatlash muhitini yaratish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish lozim.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Olib borilgan tadqiqotlar va amaliy tajriba-sinov natijalari shuni ko'rsatadiki, boshlang'ich ta'lim jarayonida individual yondashuvni joriy etish o'quvchilarning akademik o'zlashtirish ko'rsatkichlarini oshirish va ularning shaxsiy salohiyatini ro'yobga chiqarishda muhim pedagogik omil hisoblanadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining psixofiziologik xususiyatlari, idrok etish va axborotni qayta ishlash tezligidagi tafovutlarni hisobga olgan holda differensiallangan topshiriqlar hamda moslashuvchan ta'lim trayektoriyalarining qo'llanilishi mavjud ta'lim usullarini individual yondashuv asosida yanada boyitish va takomillashtirish imkonini beradi.

Tajriba-sinov jarayonida tatbiq etilgan A, B va C darajali topshiriqlar tizimi sekin o'zlashtiruvchi o'quvchilarda o'z kuchiga bo'lgan ishonch va ichki motivatsiyaning shakllanishiga xizmat qilgan bo'lsa, iqtidorli o'quvchilar uchun mantiqiy hamda ijodiy fikrlash ko'nikmalarini yanada rivojlantirishga keng imkoniyat yaratdi. Natijada dars jarayonida har bir o'quvchining faolligi va bilishga bo'lgan qiziqishi ortib, fanlar bo'yicha sifat ko'rsatkichi sezilarli darajada yuksaldi.

Umuman olganda, boshlang'ich ta'limda individual yondashuvni tizimli va izchil qo'llash har bir bolaning shaxsiy imkoniyatlariga mos, insonparvar va natijador ta'lim muhitini yaratishga xizmat qiladi. Bu esa ta'lim sifatini yanada oshirish, o'quvchilarda mustaqil fikrlash hamda umr davomida bilim olish ko'nikmalarini shakllantirish bo'yicha belgilangan strategik vazifalarning muvaffaqiyatli bajarilishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining 23.09.2020-yildagi "Ta'lim to'g'risida"gi O'RQ-637-son Qonuni. – Toshkent: O'zbekiston, 2020.
2. Azizxo'jayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – Toshkent: Moliya, 2005. – 160 b.
3. Beshimov A., Ismoilova Z. Boshlang'ich sinflarda differensiallangan ta'lim texnologiyasi // Boshlang'ich ta'lim. – 2021. – № 4. – B. 12–16.
4. Mavlonova R.A., Hoshimov K. Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi, innovatsiya va integratsiyasi. – Toshkent: Aloqachi, 2013. – 232 b.
5. Nishonova Z.T., Alimova G.K. Bolalar psixologiyasi va uni o'qitish metodikasi. – Toshkent: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2014. – 208 b.
6. Sodiqova Sh.A. Boshlang'ich ta'limda o'quvchilarning bilish faoliyatini aktivlashtirishda individual yondashuv // Pedagogik mahorat. – 2022. – № 2. – B. 45–49.
7. Turg'unov S.T., Maqsudova L.A. Pedagogik jarayonlarni boshqarish va sifatini oshirish. – Toshkent: Fan, 2019. – 180 b.
8. Yoqubov S.M. Boshlang'ich sinf o'quvchilariga individual yondashuvning pedagogik-psixologik xususiyatlari // Ta'lim va innovatsion tadqiqotlar. – 2023. – № 1. – B. 88–92.
9. Ziyamukhamedova S.S. Boshlang'ich ta'limda shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalarini qo'llash // O'zbekiston milliy universiteti xabarlari. – 2022. – № 3. – B. 112–115.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №9(1)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.